

IJTIMOY HAMKORLIK DOIRASIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Xuramov Ilxom Panjiyevich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

e-mail: xuramovilxom@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqola professional ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlik mexanizimini shakllantirish tarixi rivojlanish bosqichlari va jaxon tajribalarini o'rganish va mamlakatimizda professional ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishda muhim ro'l tarmoqlardan biri ekanligini ochib berishga qartilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy hamkorlik, konsepsiya, ijtimoiy munosabatlar, manfaatlar, jamoa, professional ta'lim, o'zaro bog'liqlik.

МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В РАМКАХ СОЦИАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Хурамов Ильхом Панджиевич

Преподаватель Термезского государственного университета

электронная почта: khuramovilxom@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена изучению исторических этапов развития и мирового опыта формирования механизма социального сотрудничества в профессиональных образовательных учреждениях и выявлению того, что это одна из ветвей играет важную роль в развитии деятельности профессиональных учебных заведений нашей страны.

Ключевые слова: Социальное сотрудничество, концепция, социальные отношения, интересы, коллектив, профессиональное образование, взаимозависимость.

METHODOLOGY OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS WITHIN THE FRAMEWORK OF SOCIAL COOPERATION

Khuramov Ilkhom Panjiyevich

Teacher of Termiz State University

e-mail: khuramovilxom@gmail.com

Abstract: This article is devoted to the study of the historical development stages and world experiences of the formation of the mechanism of social cooperation in professional educational institutions and to reveal that it is one of the branches of an important role in the development of the activities of professional educational institutions in our country.

Key words: Social cooperation, concept, social relations, interests, team, professional education, interdependence.

Kirish. Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi muassasasining asosiy ijtimoiy vazifasi mehnat bozorida talab qilingan bitiruvchilarni ya'ni raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun professional

ta'limidagi ta'lim mazmuni ishlab chiqarishdagi mutaxassis faoliyatini, uning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zida to'liq mujassamlashtirishi lozim.

Mazkur dolzarb masalani ijobiy hal etish uchun ta'lim mazmunining asosi hisoblangan professional ta'limi tarmoq standartlari, o'quv reja va o'quv dasturlarini yaratish va ularni takomillashtirish jarayoniga ta'lim muassasasining kadrlar tayyorlashdagi eng yaqin ijtimoiy hamkori hisoblangan ish beruvchilarni jalb etish zarur.


O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish va o'tkazishda ta'lim jarayoniga ishlab chiqarish korxonalari amaliyotchi mutaxassislarni jalb etish, ularning bazasidan keng foydalanishni yo'lga qo'yish kollej bitiruvchilari kasbiy ko'nikma va malakalarining talab darajasida bo'lishini hamda ishlab chiqarish sharoitlariga tez moslashuvini ta'minlaydi. Buning uchun ishlab chiqarish mutaxassislarni o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirishda ishtirok etishlarini ta'minlash zarur bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, sifatini takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha olimlardan O.A.Абдуллина[8], С.Я.Батышев[9], Г.К.Селевко[10], Ю.К.Василев, В.В.Анисимовларнинг[11] ilmiy-tadqiqot ishlari o'rganildi.

Biz tomondan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari professional ta'limlarida kadrlar tayyorlash uchun ta'lim mazmunini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishda ijtimoiy hamkorlarni keng jalb etishga qaratilgan bo'lib, pirovard natijada tayyorlangan mutaxassislarning kasbiy bilimi, ko'nikma va malakalari bilan mehnat bozori talablari o'rtasida nomutanosiblikni bartaraf qilishga erishish, ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlashni ko'zda tutadi

Tadqiqot metodologiyasi.

Ijtimoiy hamkorlik doirasida tashkil etiladigan ta'lim jarayoni bir qator bir-biri bilan o'zaro bog'langan faoliyatlar doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir olingan alohida bosqichda tegishli manfaatdorlarni jalb qilish mumkin.



1.1-rasm. Ijtimoiy hamkorlik doirasida ta'lim mazmunini aniqlash va ta'lim jarayonini amalga oshirish tizimi

Manbalarni o'rganish, talablarni aniqlash. Hududiy miqyosdagi mehnat bozori tahlili amalga oshiriladi. Ushbu jarayon mazkur bobning birinchi bo'limida yoritib berilgan bo'lib, tahlil natijasida quyidagilar aniqlanadi:

- har bir kasb va ixtisosliklar uchun ko'nikma va malakalar ro'yxati;
- joriy va kelgusida zarur bo'ladigan ko'nikma va malakalar o'rtasidagi bo'shliqlar ro'yxatini tuzish;
- ish beruvchi va mutaxassis kadrlar orasida muhim notengliklar va munosabatlarni o'rganish.

Dastlabki vaziyatni tahlil qilish o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- o'quvchining kasb-hunar o'rganish imkoniyatlari, uning kasbiy rivojlanish bosqichi, kasbiy ta'lim oldi tayyorgarligi, kasbga qiziqishi va ba'zi ta'sir etuvchi tashqi ijtimoiy sharoitlar;

- professional ta'limi o'qituvchilarining shaxsiy, kasbiy va pedagogik imkoniyatlari;

- professional ta'limining ichki va tashqi infratuzilmasi, pedagogik yondashuvi.

Bularga ijtimoiy hamkorlar bilan mustahkam aloqa va tegishli qarorlar qabul qilish,

ota-onalarni hamkorlikka jalb etilishi, ishlab-chiqarish korxonalari bilan aloqa tarmogʻi va boshqalar kiradi;

- professional taʼlimi oʻquv reja va fan dasturlarini takomillashtirish doirasida hisobga olishi kerak boʻlgan aniq sohalar boʻyicha milliy koʻrsatkichlar va hududning oʻziga xos xususiyatlari.

Taʼlim vazifalarini shakllantirishda manfaatdorlar va ijtimoiy hamkorlar asosiy muhim hissa qoʻshuvchilar hisoblanadi.

Har bir kasbiy soha mazmuni (misol uchun, oziq-ovqat, yengil sanoat, qurilish va h.k.) uning kelajakdagi rivojlanish yoʻnalishi boʻyicha aniqlanishi kerak. Manfaaddorlarning takliflari kasb-hunar taʼlimi vazifalari va mazmunini ishlab chiqishda muhim xisoblanadi.

Taʼlim mazmunlarini tuzish. Oʻqitish mazmunini ishlab chiqishda hududdagi ish beruvchilarning talablari, mazkur ishlab chiqarish korxonalarida amalda qoʻllanilayotgan texnika va texnologiyalar, oʻquvchining tushunish saviyasi va ushbu fan bilan oʻquvchining qay darajada xabardorligi inobatga olinishi kerak.

Ijtimoiy hamkorlik doirasida ishchi oʻquv reja va ishchi oʻquv dasturlarini takomillashtirish. Oʻquv reja va dasturlar boʻyicha professional taʼlim muassasi miqyosida har bir oʻzgartirish hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatdiki, hozirgi kunda professional taʼlim muassasalarida birinchi oʻquv yili davomida asosan umumtaʼlim fanlari oʻqitiladi. Bu holat oʻquvchilarda oʻqishning dastlabki kunlaridan boshlab, oʻzlari tanlagan kasb boʻyicha tasavvur va tushunchalarning shakllanmasligi, natijada kasb-hunar olishga boʻlgan ishtiyoqlarini soʻnishiga, qiziqishlarini pasayishiga olib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. Taʼlim natijalariga muvaffaqiyatli erishish uchun oʻqituvchi tomonidan bir mashgʻulotning oʻzida ikki yoki undan ortiq taʼlim metodlaridan foydalanish mumkin. Bu metodlar oʻquvchilarning dastlabki tayyorgarligi, bilim va tajribasi qay bosqichda ekanligiga qarab qoʻllaniladi.

Faol taʼlim metodlaridan oʻrinli va maqsadli foydalanilganda pirovard natija - taʼlim samaradorligi anʼanaviy taʼlimga nisbatan har doim yuqori boʻladi. Eng

asosiysi o'quvchida mustaqil fikrlash, masalalar va muammolarni mustaqil yechimini topish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi malakalarni shakllantirishni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasi bitiruvchilarining mustaqil hayotga qadam qo'yishlarida, mehnat bozorida o'z o'rinlarini topishlarida muhim ahamiyat kasb etadi [12].

Xulosa va takliflar.

Respublikadagi Professional ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog va muhandis-pedagoglar ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish tarafdori bo'lib, ularning bu borada yetarlicha tasavvurga egaligi ijtimoiy hamkorlik hayotiy zaruratligini tasdiqlaydi.

Ta'lim jarayonida ijtimoiy hamkorlik aniq amaliy faoliyatni bajarishni talab etuvchi yaxlit tizim sifatida shakllanishida uning barcha bosqichlari oldida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan aniq maqsad va vazifalari, natijalarni baholash mezonlari va manfaatdorlar faoliyatini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlarni yuritish izchilligi zaruriydir.

Ta'lim mazmunini yaratish ijtimoiy hamkorlarni jalb etishga mehnat bozori tahlili va uning asosiy vazifalari, mehnat bozori tahlilining ob'ekti va kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga bo'lgan ehtiyojlarning tahlili asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 18 iyundagi "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi Qonuni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-sonli Farmoni. www.lex.uz.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
4. Abdullaeva K.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bulajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Avtoref. dis. ...ped. fan. nom.- T.: TDPU, 2006. – 22 b.

5. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Buxoro: Matbaa, 2001. - 68 b.
6. Актуальные проблемы современного профсоюзного движения. – Казан: Медицина, 2000. – 40 с.
7. Айвазян С.А., Енюков И.С., Мешалкин Л.Д. Прикладная статистика. – М.: Фининсы и статистика, 1983. – 471 с.
8. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителей системы высшего педагогического образования. (Учебное пособие). – М.: Просвещение, 1990. - 140 с.
9. Батышев С.Я. Профессиональная педагогика. -М.: Профессиональное образование, 1997. -511 б.
10. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. - Ярославль, 1998.-78 с.
11. Васильев Ю.К., Анисимов В.В. Политехническая направленность профессиональной подготовки. – М.: Просвещение, 1993.-123 с.
12. Ёринов У.А. Ижтимоий ҳамкорлик асосида ташкил этилган таълим жараёни самарадорлигини аниқлаш // Олий ва касб-хунар таълими тизими учун замонавий ўқув адабиётларини яратиш ҳамда сифатини баҳолаш муаммолари: Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. – Бухоро: БООЕСТИ, 2010. -Б.455-457.